

МАКТАБДА ТЕХНОЛОГИЯ ФАНИНГ О'QITILISHI ASOSLARI

*Tojieva Gulnozaxon Rustamovna**Andijon shahar 23- umumiy o'rta talim maktabi
Texnologiya fani o'qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada texnologiya darslari haqida umumiy tushunchalar haqida fikr yuritiladi. Bundan tashqari, texnologiya darslarini hayotimiz tutgan o'rni va texnologiya darslarida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish maqolaning asosiy mazmunini tashkil qiladi.

Kalit so'zlar: texnologiya darslari, innovatsion texnologiya, pedagogik texnologiya, dizayn.

Ma'lumki, tasavvuf ilmida komil insonni ruhan shakllantirish, kamolotga yetkazish nazariyasi bosh masala hisoblanadi. Bu nazariyaga ko'ra tasavvufdagi komil inson yoki «al-inson al-komil» tushunchasi ilohiylik va insoniylik tajassumining mukammal va oliy darajasi, odamlarning butunlikda, azim uyg'unlikda ko'rish orzu-xayollari, kamolot mash'ali bo'lish barobarida aniq shaxslar, insonlar rutbasini tan olish va qonunlashtirish hamdir. Chunki komil inson barcha ilmlardan, zohiriyl va botiniy donishdan bexabar, qalbida g'ayb asrori jo'sh urib turgan zot deb bilingan. Mustaqillik barcha xalqlarning rivojlanishi uchun sharoit tug'dirib beradi. Har bir xalqning odat va marosimlarida xalq hayotini zamonaviy turmushiga uzlusiz singgan chuqur xalqchil va ilg'or elementlar mavjuddir. Xalqda mehnatsevarlikni shakllantirish uchun o'sib kelayotgan yosh avlod atrofida mustahkam va turg'un mehnat muhitini hosil qilish zarur. Shuning uchun o'zini oqlagan ko'p asrlik mehnat an'analarini o'rganish va targ'ibod qilish kerak. Mehnat an'analarini o'rganish katta ahamiyat kasb etadi, chunki u kasb-hunar tanlashda ilmiy asoslangan holda foydalanish uchun zamin yaratadi. Mehnat an'analarini insonlarni mehnat malakalari va mehnat jarayonini ko'p marta qaytarish natijasida shakllangan va odatga aylangan insonlarning o'ziga xos axloqiy, psixologik sifatlar yig'indisidir. Ular jamiyat yoki jamoa mavjudligining zaruriy sharoitlarini ifodalaydi, meros bo'lib o'tish xarakteriga ega, katta avlodlar yetishgan tajribani saqlashga xizmat qiladi. Mehnat an'analariga ommaviylik xosdir, ular hayotiy bo'lib, xalq ommasi kundalik ijodida mavjud. Ularda his - tuyg'ulik tomoni ham mavjud: ular sinfiy kurash, mehnat ishtiyoqining yorqin romantikasi bilan ilhomlangan. Mehnat an'analarida mehnatkash sinfga xos bo'lган, mehnatkash insonlarga, ishchi, hunarmand kasbiga, mehnat yaratgan qadriyatlarga hurmat, ijod, bunyodkorlikka ehtiyoj, o'zaro yordam, musobaqa va hokazolar ifodalangan. O'zbek xalqi asrlar mobaynida o'zining iqtisodiy, geografik va ijtimoiy hayoti xususiyatlari bilan bog'langan mehnat tarbiyasining mustahkam an'analarini ijod qilish bilan bir

vaqtida avloddan - avlodga mehnat mahoratlarini shakllantirish yo'llari va vositalari haqidagi bilimni uzatib borgan.

Umumiy o'rta ta'lif maktablarining o'quv rejasida texnologiya o'quv faniga 1-4 sinflarda haftasiga 1 soatdan, 5-7 sinflarda haftasiga 2 soatdan va 8-9 sinflarda haftasiga 1 soatdan, hammasi bo'lib 408 soat vaqt ajratiladi. O'quvchilarni mehnatga tayyorlash jarayonida kasb-hunarga yo'naltirishni yanada kuchaytirish, ularni badiiy mehnat yo'nalishlari, uy-ro'zg'or buyumlarini ta'mirlash, zamonaviy ishlab chiqarish asoslari, metall va metalmas hamda gazlamaga ishlov berish texnologiyasi, pazandachilik, xalq hunarmandchiligi asoslari, ro'zg'orshunoslik, elekrotexnika ishlar, kasb-hunarga yo'llash bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarni egallash ko'zda tutilgan. 5-7 sinflarda o'quvchilarning ijtimoiy-estetik didi va dunyoqarashini kengaytiradigan, oilaviy hayat va turmushda kerak bo'ladigan yuqorida ko'rsatilgan bo'limlar o'quvchilarda milliy madaniyat va an'analarga mehrmuhabbat uyg'otadi. 8-9 sinflarda xalq hunarmandchiligi texnologiyasi, ro'zg'orshunoslik asoslari, elektronika asoslari, kasb-hunarlarga yo'naltirish bo'limlari ta'lif oluvchilarning ijtimoiy dunyoqarashini kengaytiradi, kasb-hunar ta'limi yo'nalishlarini ongli ravishda tanlashlariga ko'maklashadi. Umumta'lif maktablarida texnologiya fani yuqori bosqichlardagi ta'lif muassasalarida kasb-hunar ta'limi va tarbiyasini amalga oshirishning negizi bo'lib, uning mazmuni asosan quyidagi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi. I-IV sinflar – keng ko'lamda ishlatiladigan turli xil oddiy materiallar (qog'oz, rangli qog'oz, karton turlari, poralon, penoplast, paxta va matolar qiyqimlari, plastilin, simlar va boshq.) bilan tanishtirish, buklash, qirqish, yelimalsh, bichish, tikish, to'qish usullari orqali kichik hajmdagi o'yinchoqlar va oddiy buyumlar yasash, xalq hunarmandchiligi to'g'risida boshlang'ich tushunchalar berish, o'quvchilarni o'z-o'ziga xizmat ko'rsatishga o'rgatish, uy-ro'zg'or buyumlarining kichraytirilgan nussxalarini (modellar, maketlar) tayyorlashni, buyumlarni yasash yo'llari, uslublari o'rganiladi. V-IX sinflarda uchta "Texnologiya va dizayn", "Servis xizmati" hamda "Umumlashgan (o'g'il va qiz bolalar)" yo'nalishlari bo'yicha tashkil etiladi va 5-7 sinflarda haftasiga 2 soat, 8-9 sinflarda 1 haftasiga 1 soatdan darslar o'qitiladi. Ushbu har bir texnologiya fani yo'nalishlari xalq hunarmandchiligi texnologiyasi, ro'zg'orshunoslik asoslari, elektronika asoslari, kasb tanlashga yo'naltirish bilan yakunlanadi.

Servis xizmati yo'nalishi. Ushbu yo'nalish bo'yicha quyidagilarga ega bo'lish talab etiladi: - oziq-ovqat mahsulotlariga ishlov berish oshpazchilik va qandolatchilik asoslari; oziq-ovqat mahsulotlarining inson hayotidagi roli, xususiyatlari, to'yimliligi, turlari ovqatlanish me'yorlari va tartibi; taomlar turlari, milliy taomlar, oshxonalarning jihozlanishi, oziq-ovqat sanoati, sanitariya-gigiyena talablari hamda mehnat xavfsizligi qoidalari; - tikuvchilik asoslari, gazlamalarga ishlov berish, kiyimlar turlari va ahamiyati, bichish-tikish, to'qish, buyumlarni ta'mirlash, dizaynerlik ishlari, tikuv

mashinalari, yigiruv-tikuv mashinalarining turlari, umumiy tuzilishi va ishlashi; - uy-ro'zg'or yuritish asoslari, uy-ro'zg'or jihozlari kabi qismlardan iborat bo'lib, quyidagi nazariy bilimlarni o'rgatishni nazarda tutadi: oziq-ovqat va yengil sanoat sohalarida keng tarkalgan kasblar, ularning tavsiflari, oila jamg'armasi hamda ularni sarflash, qizlar bolalar gigiyenasi. O'quvchilar quyidagi ko'nikma va malakalarni egallaydilar: oziq-ovqat mahsulotlarini yig'ish, tashish, saqlash hamda ularga dastlabki va asosiy ishlov berish; turli uy-ro'zg'or asboblarini ishlatish; turli taomlar tayyorlash; zamonaviy maishiy uy ro'zg'or texnika vositalarini ishlatish; kiyimlarni bichish, tikish, tuzatish, ta'mirlash.

Xalq hunarmandchiligi asoslari: o'quvchilarga yo'naliшlar bo'yicha xalq hunarmandchiligi texnologiyalari; hunarmandlarning bozor munosabatlari asosidagi faoliyatları, uyushmalari va uning istiqbollari; hunarmandchilik bo'yicha ko'rgazma va tanlovlarni tashkil qilish va ishtirokchilarni tanlash qoidalari; hunarmandlar tomonidan eksport va ichki bozor uchun ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar; xalq hunarmandchiligining tanlangan yo'naliши bo'yicha zamonaviy dizayn talablari bilan uyg'unlashtirilgan mahsulot tayyorlash ish usullari; zamonaviy dizayn talablari bilan uyg'unlashtirilgan xalq hunarmandchilik mahsulotlarini tayyorlash ish usullariga oid bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'ladilar.

Elektrotexnika ishlari: o'quvchilar elektr montaj ishlarida ish o'rnnini tashkil qilish; elektr o'tkazish simlarining turlari; elektr o'tkazgichlarni montaj qilish izolyasiyalash ishlari; elektr asboblari; maishiy elektr asboblarni elektr manbaiga ulash, ularning atrof-muhit va inson sog'ligiga ta'siri; elektr energiyasini tejamli ishlatish usullari; kavsharlash asosida elektr montaj ishlarini bajarish ish o'rnnini tashkil qilish; kavsharlashda simlar, kavshar, flyuslar turlari; kavsharlash asosida elektr montaj ishlarini bajarish ish asboblari hamda ish usullari; elektr montaj ish asboblari turlari va ularda ishslash usullari; elektr bilan ishlovchi sodda uskuna va jihozlar tayyorlash; elektrotexnik hamda elektron uskunalarni ishlab chiqarish, ishlatish va ularga xizmat ko'rsatish, asboblarni elektr montaj qilish va ishga tushirishga tayyorlash hamda shu sohaga oid kasb-hunarlar bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'ladilar. Texnologiya fanini amalga oshirishning o'ziga xos asosiy shartlaridan biri – uning barcha bo'g'inlaridagi o'quv jarayonini moddiy-texnikaviy, uslubiy-didaktik jihatdan hozirgi zamon talablari assosida majmuaviy ta'minlanishidadir.

Texnologiya fanining moddiy-texnik ta'minoti; dastgohlar, maxsus binolar, yo'riqnomalar, huquqiy va ma'muriy hujjatlar majmualari, texnologik va xavfsizlik xaritalari, turli materiallar, asbob-uskunalar, moslamalar, energiya manbalari, ehtiyyot qismlar va boshqalarni o'z ichiga oladi. Bu ta'minotni amalga oshirishda davlat tashkilotlari, xususiy, kichik, qo'shma korxonalar va mehnat jamoalari, ota-onalar hamda keng jamoatchilik yordami jalb qilinsa, Texnologiya fanini o'qitishning samaradorligi ortadi.

Foydanilgan adabiyotlar:

1. Sanaqulov X.R., Xodiyeva D.P. Satbayeva «Mehnat va uni o‘qitish metodikasi». Darslik. T.: TDPU. 2015-yil.
2. Mavlonova R. A., Sanaqulov X.R., Xodiyeva D.P. Mehnat va uni o‘qitish metodikasi. 0 ‘quv q o‘llanma. T.; TDPU. 2007-yil.
3. Sanaqulov X.R., Xodiyeva D.P., Sanaquiova A.K. “Texnologiya” darsligi. T . ; “Sharq” . 2018-yil10
4. Sanaqilov X.R., Xodiyeva D.P., Sanaqulova A.K. Mchnat ta’imi darsligi.T . : “Sharq” . 2016-yil